

**Ushbu metodik ko'rsatma institut Ilmiy – metodik kengashining 2012 yil  
„11“ 07 11 -sonli majlisida ko'rib chiqildi va chop etishga tavsiya  
etildi.**

Metodik ko'rsatma 5640100 – «Hayot faoliyati xavfsizligi» bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalariga bitiruv malakaviy ishlarini bajarishlarida metodik yordam berish uchun mo'ljallangan.

Metodik ko'rsatmada bitiruv malakaviy ishning maqsadi va vazifasi, uning mavzusini tanlash, ishning tarkibi va mazmuniga qo'yiladigan talablar, uni bajarishga va shakllantirishga qo'yiladigan talablar, ishni himoya qilish tartibi va boshqa zarur ma'lumotlar keltirilgan.

Ko'rsatmada bitiruv malakaviy ishlarining taklif qilinadigan mavzulari, hamda chuqurroq o'rghanishga tavsiya etilgan masalalarga ko'rsatmalar ham keltirilgan.

**Tuzuvchilar:** **E.I. Ibragimov**, k.o'qit.  
**S.M.Gazinazarova**, dots.

**Taqrizchilar:** **O.R.Yoldoshev**, Toshkent Davlat texnika universiteti “Hayot faoliyati xavfsizligi” kafedrasi dotsenti, t.f.n.

**R. Ergashev**, dotsent, t.f.n.

## KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi (BMI) talabalarning o'quv dasturi asosida olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy jihatdan qo'llab bajaradigan mustaqil ijodiy ishi hisoblanadi. Malakaviy bitiruv ishi talaba tomonidan o'quv rejasida ko'zda tutilgan fanlarni o'zlashtirish darajasi bilan xarakterlanadi va uning mustaqil ish faoliyati davrida malaka darajasini ta'minlashning yakuniy bosqichi hisoblanadi.

Aniq ishlab chiqarish jarayoni yoki favqulorra vaziyat bilan bog'lik bitiruv malakaviy ishni bajarish jarayonida talaba quyidagilarni e'tiborga olishi lozim: axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va undan foydalinish uslublarini egallah, qishloq va suv xo'jaligi sohasida faoliyat xavfsizligi va ish sharoitlarini yaxshilash masalalarida o'z bilimini ko'rsatish, xavfsizlikni ta'minlash va ish sharoitlarini yaxshilashning tadbirlarining eng maqbul variantlarini topish, tanlash, texnik va iqtisodiy hisob-kitoblarni aniq bajarish, xavfsizlikning texnik vositalarini hisoblashda ilm-fan, texnika yangiliklari va ilg'or yutuqlarni qo'llashni bilih, ularning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini asoslash hamda o'z fikr va takliflarini mantiqan to'g'ri va aniq shakllantirishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishini bajarishga malakaviy amaliyot davrida aniq korxona yoki tashkilot bo'yicha to'plangan ma'lumotlar asos bo'lib xizmat qiladi.

## **1. BITIRUV MALAKAVIY ISHINI BAJARISHGA**

### **UMUMIY KO'RSATMALAR**

#### **1.1. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari**

Bitiruv malakaviy ishi – oliv ta'lrim muassasasida o'qishda bakalavr akademik darajasini olishning oxirgi bosqichi hisoblanadi.

**Malakaviy bitiruv ishini bajarishning maqsadi** ta'lrim sohasi bo'yicha olingen nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash va kengaytirish, olingen bilimlarni muayyan ilmiy, texnikaviy, ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy vazifalarni hal etishda qo'llashdan iboratdir. Bundan tashqari talabalarni ijodiy ishlashga, ishlab chiqilayotgan masalaning (muammoning) qo'yilish jarayonidan boshlab, uni to'la nihoyasiga yetkazish bo'yicha qarorlar qabul qilish, hamda shu jarayonlarda yuzaga keladigan mas'uliyatni his etishga o'rgatishdir.

**Malakaviy bitiruv ishining vazifasi** fan va texnika rivojlanishining keyingi yutuqlariga tayanib bajarish; iqtisodiyot ob'yektlari, shuningdek suv, qishloq xo'jaligi korxona va tashkilotlarining zamonaviy sharoitlardagi taraqqiyoti va yutuqlarini hisobga olish; faoliyat xavfsizligini ta'minlash; qulay mehnat sharoitlarini yaratishning aniq prinsip, uslub va vositalarini hisoblash; HFX tadbirlarining ijtimoiy-iqtisodiy va texnik samaradorligini aniqlash va shu kabilar.

#### **1.2. Bitiruv malakaviy ishining mavzusi**

Bitiruv malakaviy ishining mavzusi inson faoliyatining barcha sohalaridagi va favqulodda vaziyatlardagi xavfsizlikni ta'minlash muammosining zamonaviy holatini va istiqboliy rivojlanishini aks ettirishi kerak.

Malakaviy bitiruv ishining mavzusi juda muhim masala bo'lib, uni yechish jarayonida ko'p omillar hisobga olinadi. Mavzuni tanlash ijodiy jarayon bo'lib unda talaba faol rol o'ynashi kerak. Mavzuni shakllantirishda ko'rilib yaxshi bilishi lozimligi talab etiladi.

Bitiruv malakaviy ishlari mavzusining yillik ro'yxati bitiruv amaliyoti boshlanishiga qadar yoki bitiruv kursining boshida e'lon qilinadi.

Bitiruv malakaviy ishlari mavzusining yillik ro'yxati bitiruv amaliyoti boshlanishiga qadar yoki bitiruv kursining boshida e'lon qilinadi.

Bitiruv malakaviy ish mavzusi va rahbarni talabaga biriktirish kafedraning taqdimnomasi bo'yicha rektorning buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

Talabalarga (reytinglari bo'yicha kamayish tartibida) malakaviy ishlarning mavzularini tanlash huquqi beriladi. Talaba yoki talabaning o'qishi uchun to'lov-kontrakt mablag'ini to'lovchi buyurtmachi zaruriy asoslar bilan bitiruv malakaviy ishlari mavzusi bo'yicha o'z variantlarini taklif etishlari mumkin. Bunda albatta mavzular buyurtmachi ob'yektidagi masala va muammolarga tegishli bo'ladi.

Ish rahbari, malakaviy ishning mavzusiga muvofiq talabaga malakaviy ishga tegishli materiallarni toplash bo'yicha (jumladan, malakaviy amaliyat o'tkazish davrida ham) topshiriq beradi. Topshiriqning shakli oliv o'quv yurtining o'quv bo'limi tomonidan belgilanadi. Topshiriq malakaviy ish bilan birgalikda Davlat attestatsiya komissiyasiga taqdim etiladi.

5640100 – «Hayot faoliyati xavfsizligi» bakalavriyat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitiruv malakaviy ishi uchun tavsija etiladigan mavzular qo'llanmaning ilova qismida keltirilgan. Ishlab chiqarishda faoliyat xavfsizligini ta'minlash masala va muammolariga bag'ishlangan mavzular 1- ilovada keltirilgan. Turli sohalarda va umuman hayotda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish, favqulodda vaziyatlarda aholi va ishlovchilarning xavfsizligini ta'minlash, hamda favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf qilish muammo va masalalariga bag'ishlangan mavzular esa 2- ilovada keltirilgan.

### **1.3. Bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbarlik qilish**

Malakaviy ishlarga rahbarlar ushbu oliv o'quv yurtining professor va dotsentlari yoki ilmiy xodimlari, boshqa muassasa va korxonalarining yuqori malakali mutaxassislari safidan kafedra taqdimnomasi bo'yicha rektor buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

Malakaviy ish rahbari:

- ❖ topshiriq beradi;
- ❖ malakaviy ishning bajarilish jadvalini rejalahshtiradi;
- ❖ asosiy adabiyotlar, ma'lumot va arxiv materiallarini, hamda mavzu bo'yicha boshqa manbalarni tavsija etadi;
- ❖ talabalar bilan muntazam ravishda konsultatsiyalar o'tkazadi;
- ❖ malakaviy ishning bajarilish jarayonini nazorat etadi;
- ❖ talaba bajargan malakaviy ishning sifati va muallifligiga javob beradi, mavzularining qaytarilishiga yoki ko'chirilishiga yo'l qo'ymaydi.

Malakaviy ish rahbarining taklifiiga binoan, kafedra malakaviy ishga rahbarlik qilishga ajratilgan vaqt byudjeti hisobidan ishning ayrim bo'limlari bo'yicha konsulantlarni taklif etishi mumkin.

Malakaviy ishning bo'limlari bo'yicha konsulantlar etib, oliv o'quv yurtlarining professorlari va dotsentlari, ilmiy xodimlari hamda boshqa muassasa va korxonalarining yuqori malakali mutaxassislari tayinlanishi mumkin. Konsulantlar talaba bajargan ishning muvofiq qismini tekshiradilar, zarur holdatlarda tegishli ko'rsatmalar beradilar.

### **1.4. Bitiruv malakaviy ishini bajarishga qo'yiladigan umumiyl talablar**

Bitiruv malakaviy ishi oliv o'quv yurtining, odatda, ushbu maqsadda maxsus ajratilgan xonalarida bajariladi. Ayrim hollarda, malakaviy ish korxonalar, muassasalar, ilmiy, loyihalash va boshqa muassasalarda bajarilishi mumkin.

Malakaviy ishning bajarilishi bo'yicha talabaning hisobot berish muddatlarini dekanat nazorat etadi. Talaba, dekanat tomonidan belgilangan

muddatlarda, malakaviy ishning bajarilishi haqida rahbar va kafedra mudiri oldida hisobot beradi. Kafedra mudiri malakaviy ishning tayyorlik holatini belgilaydi.

Bitiruv malakaviy ishi berilgan topshiriq asosida shaxsan talaba tomonidan bajariladi. Tanlangan, bajarilgan va hisoblangan ishlarning to‘g‘riligiga va uniig topshiriqqa muvofiqligiga, malakaviy ishda ko‘chirmachilik holatining yo‘kligiga bitiruvchi mas‘uldir.

Bitiruv malakaviy ishi ikkita - hisob-tushuntirish qismi (raschetno-poyasnitelnaya zapiska) va namoyish etiladigan chizmalar qismidan iborat bo‘ladi.

Hisob-tushuntirish qismi bitiruv malakaviy ishning mazmunini qisqa va muayyan shaklda ifodalashi lozim. Hisob-tushuntirish qismining mazmuni bitiruv malakaviy ishi topshirig‘iga mos kelishi kerak.

Bitiruv malakaviy ishining hisob-tushuntirish qismi quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- titul varaqi,
- topshiriqlar varaqi,
- ishni bajarishning taqvimiylar rejasi,
- mundarija,
- annotatsiya,
- kirish,
- asosiy qism,
- qo‘llanilgan adabiyotlar ro‘yxati,
- ilovalar.

Zaruriy hollarda hisob-tushuntirish qismiga grafiklar, rasmlar, eskizlar, diagrammalar, sxema va boshqalar, shuningdek, zaruriy qo‘sishimcha axborot yozilgan elektron shakldagi ma’lumotlar, ilova etilishi mumkin.

Hisob-tushuntirish qismi kompyuterda yoziladi va u “Yozma hujjatlarga umumiyl talablar” standarti talablariga asosan rasmiylashtirilgan bo‘lishi lozim. Hisob-tushuntirish qismi yozuvlari A4 formatli varaqlarda bajariladi va bunda varaqning chap tomonidan 30 mm, o‘ng tomonidan 15 mm, yuqori va pastki tomonlaridan 20 mm joy qoldiriladi. Matnni 14 o‘lchamdagি Times New Roman shriftida terish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Matn qatorlari orasida 1,0 interval joy qoldiriladi.

Hisob-tushuntirish qismi kamida 10-15 ming so‘z hajmida belgilanadi.

Bitiruv malakaviy ishining namoyish etiladigan chizmalar formati, shartli belgilari, shrift va masshtablari amaldagi standartlar talablariga qatiy muvofiq kelishi zarur. Odatda, chizmalar A2 formatli qog‘ozda (5-6 varaq hajmida) qalamda bajariladi yoki texnika vositalari orqali tayyorlanib ekranda ko‘rsatiladi.

Bitiruv malakaviy ishning har bir bo‘limi muvofiq asoslar, qarorlar va xulosalar bilan yoritiladi. Bitiruv malakaviy ishda, ilgari bajarilgan mustaqil ishlarning natijalari yoki boshqa mualliflarning (ilmiy ma‘ruzalar va maqolalari, hisob-grafika ishlari, kurs ishlari va loyijalari, albatta, nomlari ko‘rsatilgan holda) ishlari aks ettirilishi yoki ulardan foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishlarning tarkibiga bitiruv malakaviy ishining mavzusi, maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan xolda elektron shakldagi taqdimot materiallari kiritilishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan bo'limlarga va asosiy qism tarkibiga qo'yiladigan talablar qo'llanmaning 2-qismidagi bo'limlarda keltirilgan.

Kafedraning tavsiyasiga binoan bitiruv malakaviy ish chet tillarning birida bajarilishi mumkin. Chet tilda bajarilgan ishga davlat tilidagi annotatsiya ilova etiladi va himoya vaqtida tarjima ta'minlanadi.

### 1.5. Bitiruv malakaviy ishini himoya qilish

Bitiruv malakaviy ishini himoya qilish jarayoni boshlanishi uchun belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan, ya'ni kompyuterda bajarilgan va elektron variant bilan ta'minlangan, malakaviy ish talaba tomonidan rahbarga taqdim etiladi. Rahbar, malakaviy ish talab darajasida bajarilganligiga ishonch bildirgandan so'ng, ishni o'z taqrizi bilan birga kafedra mudiriga taqdim etadi. Rahbarning taqrizida ishning topshiriqqa asosan bajarilganligiga, talabaning ishni bajarishdagi faolligiga, masala va muammolarni yechishda qabul qilingan qarorlardagi yangiliklarga va malakaviy ishning boshqa ijobiy tomonlariga tafsiflar beriladi.

Kafedra mudiri, taqdim etilgan materiallar asosida, malakaviy ishni talaba tomonidan DAK da himoya qilishga kiritish haqida qaror qabul qiladi. Ish kafedrada dastlabki himoyadan o'tadi. Agar, kafedra mudiri talabaning malakaviy ishini himoyaga kiritish mumkin emas deb hisoblasa, masala kafedra majlisida, rahbar ishtirokida muhokama etiladi. Kafedra majlisining bayonnomasi fakultet dekani tomonidan tasdiq uchun rektorga taqdim etiladi.

Himoyaga kiritilgan malakaviy ish taqrizga yuboriladi.

Taqrizchilar tarkibi bitiruvchilar kelajakda faoliyat ko'rsatuvchi soha mutaxassislari safidan tanlanadi. Taqrizchilar sifatida oliv o'quv yurtlarining professor va o'qituvchilari ham jalg etilishi mumkin.

Fakultet dekani malakaviy ishni taqriz bilan himoya uchun DAK ga yuboradi.

Bitiruv malakaviy ishni himoya qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi oliv o'quv yurtlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risidagi Nizomda belgilangan.

Bitiruv malakaviy ishlar himoyasi zamонавиу ахборот texnologiyalari vositasida taqdimot (prezentatsiya) shaklida tashkil etiladi va o'tkaziladi.

Oliv ta'lim muassasasida axborot texnologiyalari vositasida taqdimot shaklida bitiruv malakaviy ishlar himoyasini tashkil etish uchun yetarli darajada maxsus jihozlangan auditoriyalar belgilanadi.

Bitiruv malakaviy ish himoyasidan so'ng (kamida 10 yil) oliv ta'lim muassasasida saqlanadi. Har xil sabablar bo'yicha bitiruv malakaviy ishni boshqa tashkilot yoki xodimlarga topshirish zaruriyat mavjud bo'lgan holda (tadbiq etish, tanlovlardan hokazo), ishdan nusxa olinadi va ularni mazkur nusxa beriladi, ishning asl nusxasi oliv ta'lim muassasasida qoldiriladi.

Arxiv, axborot-resurs markazi va kafedralarda saqlanayotgan yoki internet resurslaridan foydalanim aynan ko'chirib olinganligi rasmiy himoyagacha aniqlanib tasdig'ini topgan bitiruv malakaviy ishlari kafedra mudiri taqdimnomasiga asosan rektor

buyrug'i bilan bekor qilinadi va bitiruvchiga qoniqarsiz baho qo'yilib, ish rahbari keyingi uch yil davomida bitiruv malakaviy ishlarga rahbar etib tayinlanmaydi.

## **2. BITIRUV MALAKAVIY ISHINING TARKIBI VA MAZMUNI**

Umumiy holatda 5640100 – «Hayot faoliyat xavfsizligi» baklaviyat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitiruv malakaviy ishi – bu inson faoliyatining barcha sohalarida (asosan, ishlab chiqarishda va favqulodda vaziyatlarda) xavfsiz va zararsiz faoliyat sharoitlarini ta'minlaydigan chora-tadbirlarni ishlab chiqishdir.

Bitiruv malakaviy ishida asosan bir-biri bilan bog'liq bo'lgan quyidagi ikkita masala yechiladi:

1. Faoliyat sharoitlarini, shu jumladan mashina va mexanizmlar, uskunalar, jihozlar, texnologik jarayonlar, operatsiyalar, qo'llaniladigan materiallar va tayyorlanadigan mahsulotlarni, hamda bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarni o'rghanish va tahlil qilish bilan potensial (yashirin) xavflarni identifikatsiyalash.
2. Ishlab chiqarish va favqulodda vaziyatlar sharoitida yuzaga keladigan potensial va real xavflardan himoyalanish bo'yicha tashkiliy, texnikaviy, sanitargigiyenik, iqtisodiy, yong'inga qarshi va boshqa tadbirlar va vositalarni qabul qilish va tuzishdir. Bunda favqulodda vaziyatlar sodir bo'lishining oldini olish bo'yicha tuziladigan tashkiliy, texnik va boshqa tadbirlar muhim elementlardan bittasi hisoblanadi.

Yuqorida qayd qilib o'tilganidek, malakaviy bitiruv ishi ikkita - tushuntirish-hisob qismi va namoyish etiladigan chizmalar qismidan iborat bo'ladi.

5640100 – «Hayot faoliyat xavfsizligi» baklaviyat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitiruv malakaviy ishi hisob-tushuntirish qismini, tanlangan mavzudan qat'iy nazar, belgilangan masala va vazifalarini yechish uchun quyidagi bo'limlarga ajratiladi:

1. Titul varaqi (3-ilova).
2. Topshiriqlar varaqi (4-ilova).
3. Ishni bajarishning taqvimiyoj rejası (5-ilova).
4. Mundarija.
5. Annotatsiya.
6. Kirish.
7. Asosiy qism.
8. Qo'llanilgan adabiyotlar ro'yxati.
9. Illovalar.

Tanlangan mavzuga bog'liq holda esa, asosan, hisob-tushuntirish qismining asosiy qismi bo'limlari va chizmalar qismi o'zgaradi. Ishlab chiqarishda faoliyat xavfsizligini ta'minlash masala va muammolariga bag'ishlangan, hamda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va favqulodda vaziyatlarda xavfsizlikni ta'minlash masalalariga bag'ishlangan BMI hisob-tushuntirish yozuvining asosiy qismi tarkibi quyidagi bo'limlarda keltirilgan.

## **2.1. Ishlab chiqarishda faoliyat xavfsizligini ta'minlash masala va muammolariga bag'ishlangan BMI hisob-tushuntirish yozuvining asosiy qismi tarkibi**

Ishlab chiqarishda faoliyat xavfsizligini ta'minlash masala va muammolariga bag'ishlangan bitiruv malakaviy ishi hisob-tushuntirish yozuvining **asosiy qismi** tarkibi, umumiy holda, quyidagi bo'limlardan iborat bo'ladi:

1. Mavzuning dolzarbligini asoslash.
2. Ob'yekt haqida umumiy ma'lumotlar (korxona tavsifi).
3. Ob'yektdagi (korxonadagi) potensial xavflarning umumiyl tahlili, (atrof-muhit sharoitlari, ishlab chiqarish jarayonlari, operatsiyalari, mashina-mexanizmlar, qo'llaniladigan energiya turlari, favqulodda vaziyat turlari, mehnat muhofazasi holati, fuqaro muhofazasi darajasi va boshqa tashkil etuvchi elementlar bo'yicha).
4. Xavflardan himoyalanishning tashkiliy, texnik, boshqaruv, sanitari-gigiyenik, ergonomik, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa turdag'i chora-tadbirlarini tuzish.
5. Bitta yoki bir nechta sodir bo'lish ehtimoli yuqori xavflarni mukammal tahlil qilish (ularning sabablar va xavflar daraxtini qurish, yuzaga kelish ehtimolini aniqlash va h.k.).
6. Mukammal tahlil qilingan xavflardan himoyalanishning prinsip, uslub va vositasini tanlash, hisob-kitob ishlarni bajarish, texnik vositaning konstruktiv chizmasi yoki sxemasini ishslash.
7. Ob'yektda (korxonada) sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar tahlili va tavsifi, himoyalanish tadbirdi, tadbirdan bittasining hisobi.
8. Ob'yekt (korxona) uchun atrof -muhit muhofazasi masalalarini ishlab chiqish.
9. Ob'yektda (korxonada) amalga oshirilgan xavfsizlikni ta'minlash tadbirdarining texnik-iqtisodiy yoki ijtimoiy - iqtisodiy ko'rsatkichlarini aniqlash.
10. Xulosalar.

## **2.2. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va favqulodda vaziyatlarda xavfsizlikni ta'minlash masalalariga bag'ishlangan BMI hisob-tushuntirish yozuvining asosiy qismi tarkibi**

1. Mavzuning dolzarbligini asoslash.
2. Ob'yekt haqida umumiy ma'lumotlar (korxona tavsifi).
3. Ob'yektdagi (korxonadagi) potensial xavflarning umumiyl tahlili, (atrof-muhit sharoitlari, ishlab chiqarish jarayonlari, operatsiyalari, mashina-mexanizmlar, qo'llaniladigan energiya turlari, favqulodda vaziyat turlari, mehnat muhofazasi holati, fuqaro muhofazasi darajasi va boshqa tashkil etuvchi elementlar bo'yicha).
4. Ob'yektda (korxonada) sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar tahlili va tavsifi.

5. Ob'yektda (korxonada) favqulodda vaziyatlar oldini olish yoki zararini kamaytirish bo'yicha texnik, tashkiliy va boshqa turdag'i tadbirlar tuzish.
6. Sodir bo'lish ehtimoliyu qoroni bo'lgan favqulodda vaziyatdag'i bitta zarar yetkazuvchi omilni mukammal tahlil qilish (ularning sabablar va xavflar daraxtini qurish, yuzaga kelish ehtimolini aniqlash va h.k.).
7. Mukammal tahlil qilingan xavfli omildan himoyalanishning prinsip, uslub va vositasini tanlash, hisob-kitob ishlarini bajarish, texnik vositaning konstruktiv chizmasi yoki sxemasini ishlash.
8. Ob'yektda (korxonada) ishlovchilarga yaratib berilgan mehnat sharoiti tahlili va uni yuksaltirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish, tadbirdardan bittasining hisobi.
9. Ob'yekt (korxona) uchun atrof – muhit muhofazasi masalalarini ishlab chiqish.
10. Ob'yektda (korxonada) amalga oshirilgan xavfsizlikni ta'minlash tadbirlarining texnik-iqtisodiy yoki ijtimoiy – iqtisodiy ko'rsatkichlarini aniqlash.
11. Xulosalar.

### **2.3. BMI chizma qismida bajariladigan grafik-chizma materiallarining taxminiy mavzulari**

1. Korxonaning bosh plani.
2. Xavf darajasi yuqori texnologik jarayon sxemasi.
3. Mehnat sharoiti yoki xavfsizlik masalalari o'rganilayotgan sex yoki bo'limning plani.
4. Ob'yektda ish sharoitini umumiy tahlil qilishning natijalari.
5. Xavflardan himoyalanishning umumiy chora-tadbirlari.
6. Korxonada mehnat xavfsizligini boshqarish.
7. Asosiy xavflarning alohida tahlili.
8. Asosiy xavflardan himoyalanish usulblari (sxema) yoki vositalari (yig'ma chizma).
9. Asosiy xavflardan himoyalanishning texnik vositasi (alohida chizma).
10. Favqulodda vaziyatning oldini olish yoki oqibatini kamaytirishga qaratilgan tadbir yoki tadbirlar majmuasi.
11. Tadbirlar samaradorligini aniqlash natijalari.

Chizmalarning umumiy soni A2 formatda 5-6 tadan kam bo'lmasligi lozim.

## **2.4. BMI asosiy qismini bajarish uchun ob'yeqtidan (korxonadan) olinishi, to'planishi va tahlil qilinishi kerak bo'lgan ma'lumotlar va materiallar ro'yxati**

Amaliyot o'tish vaqtida bitiruv malakaviy ishlarining mavzusi bo'yicha kerakli ma'lumotlar bankini hosil qilish katta ahamiyat kasb etadi. Buning natijasida BMIni ishlab chiqarish bilan bog'lab, zamonaviy talablar asosida, ma'lum bir ijobji effekt beradigan darajada ishlab chiqishga, hamda muvaffaqiyatli himoya qilishga asos solinadi.

Amaliyotdan ko'zlangan maqsadga erishish uchun talaba oldiga amaliyot o'tish ob'yektining faoliyat xavfsizligini ta'minlashga aloqador bo'lgan quyidagi umumiylig'i xususiy tavsiflarini o'rganishi va yozib olishi vazifa sifatida qo'yiladi.

Xavfsizlik sharoitlari tahlil qilinayotgan ob'yektning tavsifi quyidagi umumiylig'i ma'lumot va ko'rsatkichlarni o'z ichiga olishi mumkin:

1. Korxona yoki sex nomi va mulkchilik shakli.
2. Geografik joylanishi va manzilgoxi.
3. Ishlab chiqarish jarayonlari turlari.
4. Korxonada qo'llaniladigan modda va materialarning qisqacha xarakteristikasi (yong'in va portlash xavfi bo'yicha sinflarini ko'rsatish va hokazo).
5. Olinadigan mahsulotlarning qisqacha xarakteristikasi.
6. Qo'llaniladigan yonilg'i-energetik resurslar turi.
7. Tabiiy klimatik shart-sharoitlar (shamol yo'nalishi va hk.).
8. Ishlab chiqarish jamoasining miqdoriy tarkibi.
9. Asosiy kasblarning nomlari.
10. Korxonadagi ishlash va dam olish rejimi.
11. Ishchi kuchi bilan ta'minlanganlik darajasi (ko'p yoki kam).
12. Korxona bosh planining xarakteristikasi va sxemasi.
13. Asosiy texnologik jarayonlarning sxemalari va qisqacha ta'rifi.
14. Ishlab chiqarishdagi maishiy shart-sharoitlarning (yechinish, dush, ovkatalnish va dam olish xonalarining) QMK talablariga mos kelish darajasi.
15. Korxonada mehnat muhofazasi va fuqaro muhofazasining tashkil qilinish darajasi.
16. Korxonada mehnat muhofozasi xonasasi yoki burchagining mavjudligi.
17. Xodimlarni mehnat muhofazasi talab va qoidalariga o'qitish ishlarining tashkil qilinish darajasi.
18. Ishchilarining ShXV bilan ta'minlanganlik darajasi.
19. Xodimlarga tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil qilish darajasi.
20. Korxonada ishchi va xizmatchilarining kasallanishi holati darajasi.
21. Ishlab chiqarish jarohatlanishi ko'rsatkichlaring tahlili.
22. Ishlab chiqarishning sanitariya nuqtai nazardan sinfi.
23. Sanitar -himoya zonalarining o'lchamlari.
24. Korxonada amal qilinayotgan xavfsizlik me'yor va qoidalarining nomlari.

25. Bino va xonalarning yong'in xavfsizligi bo'yicha asosiy kategoriyalari, elektr qurilmalari tuzilishi qoidasi (EQTQ) bo'yicha yong'in va portlash xavfsizligi sinflari.
26. Asosiy binolarning yong'inga chidamlilik darajasi.
27. Xavfli ishlab chiqarish ob'yeqtarining ro'yxati.
28. Yong'inga qarshi suv ta'minotining tashkil qilinishi.
29. Yong'inga qarshi aloqa va xabar berish tizimi.
30. Xavfli chiqindilarni bartaraf qilishni boshqarish darajasi.
31. Ob'yektning geografik joylanishi bilan bog'liq bo'lgan favqulodda vaziyatlar turi va tavsifi.
32. Ishlab chiqarish jarayoni turlari bilan bog'liq bo'lgan favqulodda vaziyatlar (avariyalar, falokatlar va ularning oqibati).
33. Ishchi-xizmatchilarning favqulodda vaziyatlarda pana joylar bilan ta'minlanganlik darajasi.
34. Korxonada fuqaro muhofazasining tashkil qilinish darajasi, fuqaro muhofazasi bo'limi yoki burchagining mavjudligi.
35. Ishchi-xizmatchilarni fuqaro muhofazasi bo'yicha o'qitish va tayyorlash.
36. Ob'yekt atrofidagi aholi soni, boshqa korxonalar va muassasalarning ishchi-xizmatchilarini soni.
37. Ob'yekt atrofidagi korxona va muassasalarda yuz berishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning tahlili va tavsifi.
38. Ob'yektda favqulodda vaziyatlar yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan asbob-uskunalar to'g'risida ma'lumotlar.
39. Favqulodda vaziyatlar kelib chiqish o'chog'larining korxonaning bosh planiga tushirilgan shakli.
40. Ob'yektda favqulodda vaziyatlar yuzaga kelishining bashorat qilinganligi.
41. Ob'yektda yuzaga kelish ehtimoli katta bo'lgan zararlanish o'chog'lari.
42. Ishchi-xizmatchilarga favqulodda vaziyatlar to'g'risida xabar berish tizimi va vositalari haqida ma'lumotlar.
43. Ob'yektning favqulodda vaziyatlar oqibatini tugatish bo'yicha tayyorgarlik darajasi.
44. Ob'yektdagi mashina va mexanizmlarni favqulodda vaziyatlar oqibatini tugatish bo'yicha ishlatalish rejasining mavjudligi.
45. Korxonada tibbiy xizmatning tashkil qilinganligi.

### **3. BMINI BAJARISHDA QO'LLANISHGA TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR VA ELEKTRON RESURSLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: "O'zbekiston", 2008.
2. G'oyipov H.E. Hayot faoliyati xavfsizligi. -T.: "Yangi asr avlodii", 2007 yil. - 264 b.
3. Nigmatov I., Tojiev M. X. "Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi" Darslik.-T.: Iqtisod-moliya. 2011. -260 b.
4. Qudratov A. va b.. "Hayotiy faoliyat xavfsizligi". Ma'ruza kursi. "Aloqachi" - T.: 2005. -355 b.
5. Tojiev M. X., Nigmatov I., Ilxomov M. X. «Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi» O'quv qo'llanma. -T.: "Iqtisod-moliya", 2005. -195 b.
6. Tojiyev M.X., Nigmatov I va b. "Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi". O'quv qo'llanma. -T.: MChJ., Ta'l'im manbai, 2002. -224 b.
7. Yormatov G.YO. va boshqalar. Hayot faoliyati xavfsizligi. -T.: "Aloqachi", 2009 yil. - 348 b.
- 8."Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. -T.: 1999 y., 9-soni.
- 9."Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida"gi qonun. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. -T.: 2006 y., 41-soni.
- 10."Yong'in xavfsizligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, 2009.
- 11."Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi qonun. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, -T.: 2009 y., 16-soni.
- 12."Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug'urtasi to'g'risida"gi qonun. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008 y., 37-38-soni.
- 13."Mehnat Kodeksi". O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to'plami. - T.: 2005 y., 37-38 - soni.
- 14."Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. -T.: 2002 y., 1-soni.
- 15."Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida"gi qonun. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, -T.: 2001 y., N 1-2.
- 16."Sanitariya nazorati to'g'risida"gi qonun. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. -T.: 2006 y., 41-soni.
- 17."Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi qonun. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. -T.: 2004 y., 25-soni.
- 18."Fuqaro muhofazasi to'g'risida"gi qonun. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. -T.: 2000 y., 5-6-soni.
19. "Fuqarolar sog'ligini saqlash to'g'risida"gi qonun. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. -T.: 2007 y., 40-soni.
20. "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonun. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, -T.: 2010 y., 20-soni.

- 21.“Xavfli ishlab chiqarish ob’yektlarining sanoat xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonun. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. –T.: 2006 y., 39-son.
- 22.“Chiqindilar to‘g‘risida”gi qonun. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, –T.: 2007 y., 50-51-son.
- 23.Безопасность жизнедеятельности. /Под.ред. Михайлова Л.А. Киев – Харьков – Минск, 2007. 301 с.
- 24.Безопасность жизнедеятельности. /Под.ред. Э.А. Арутамова. 10-изд., перераб.и доп. –М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К°», 2006. - 476 с.
- 25.Безопасность жизнедеятельности. Под ред. Белова С.В., М.: Высшая школа, 2002.
- 26.Безопасность жизнедеятельности. Под.ред. Михайлова Л.А. Киев – Харьков – Минск, 2007. 301 с.
- 27.Безопасность производственных процессов: Справочник/ Под общ. ред. С.В. Белова. -М.: Машиностроение, 1985. – 448 с.
- 28.Белов С. В. и др. " Безопасность жизнедеятельности", "Высшая школа" , - М.: 1999.
- 29.Беляков Г.И. Охрана труда, -М.: Агропромиздат, 1990. – 320 с.
- 30.G‘oyipov H. E. Mehnat muhofazasi. -T.: Mehnat, 2000. – 253 b.
- 31.Yong‘in xavfsizligi. 2-nashri./A.Ye. Xudoyev tahriri ostida. –T.: O‘z.R. II V yong‘in xavfsizligi oliy texnik maktabi. 2007. – 722 b.
- 32.Yormatov G‘. “Favqulotda hodisalar va ularga qarshi kurash chora-tadbirlari”. –T.: 2002.
- 33.Yormatov G‘. va boshq. Mehnat muhofazasi. Toshkent, O‘zbekiston, 2002.
- 34.Yormatov G‘. Yo. va boshqalar. Hayot faoliyati xavfsizligi. O‘quv qo‘llanma. –T.: 2005.
- 35.Yormatov G‘., Isamuhamedov Yo. Mehnat muhofazasi. -T.: O‘zbekiston, 2002. – 384 b.
- 36.Yormatov G‘.Yo., Yuldashev O.R., Hamrayeva A.L. „Hayot-faoliyat xavfsizligi”. Darslik. Toshkent, “Aloqachi”, 2009. -384 b.
- 37.Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarни va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to‘g‘risidagi Nizom. Vazirlar Mahkamasining qarori №286, 06.06.1997, –T.: 1997.
- 38.Yo‘ldashev O‘.R., Usmonov U., Qudratov O. “Mehnatni muhofaza qilish”. – T.: 2001.
- 39.Yo‘ldoshev O.R., Raximov O. R, Xo‘jaqulova R.T, Xasanova O.T., “Mehnatni muhofaza qilish”. –T.: 2005.
- 40.Qudratov O.Q. va G‘aniyev T. Favqulodda vaziyatlarda fuqaro muhofazasi. Toshkent, „Yangi asr avlodi”, 2005.
- 41.Qudratov O.Q. Hayot faoliyati xavfsizligi. Toshkent, Mehnat, 2000.

- 42.Лобачев А.И. Безопасность жизнедеятельности. М.: 2006.
- 43.Lukovnikov A.V. Mehnat muhofazasi. – 4-chi ruscha nashridan tarjima. -Т.: O'qituvchi, 1984. – 373 b.
- 44.Мастрюков Б. С. Безопасность в чрезвычайных ситуациях: Учеб. для студентов вузов. -М.: Академия, 2004. -336 с.
- 45.Mehnat muhofazasi bo'yicha Vakil to'g'risida Nizom. Adliya vazirligi tomonidan 1995 yil 18 dekabrda 196-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, -Т.: 1995.
- 46.Mehnat muhofazasi bo'yicha ishlarni tashkil etish to'g'risida. Mehnat vazirligining Namunaviy nizomi, №273 ot 14.08.1996, -Т.: 1996.
47. Mehnat muhofazasi bo'yicha o'qishlarni tashkil qilish va bilimlarni sinash to'g'risida. Mehnat vazirligining Namunaviy nizomi, №272 ot 14.08.1996, -Т.: 1996.
- 48.Mehnat sharoitlarini baholash va mehnat sharoitlari bo'yicha ish o'rinnarini attestatsiya qilish uslubi. Mehnat vazirligi va Sog'liqni saqlash vazirligi ishlab chiqqan, №247, 28.05.1996, -Т.: 1996.
- 49.Микрюков В.Ю. Безопасность жизнедеятельности. Ростов – Дон. 2006.
- 50.Norxo'jayev A.Q., Yunusov M.Yu. Favqulodda vaziyatlar va muhofaza tadbirlari. -Т.: „Universitet”, 2001.
- 51.Пчелинцев В.А. и др. Охрана труда в строительстве. -М.: Высш. шк., 1991. – 272 с.
- 52.Rasuleva M.A., Yuldashev O.R. Videoterminallardagi xavfsizlik muammolari. -Т.: 2004.
- 53.Справочник. Безопасность производственных процессов. /под ред. Белова С. В., -М.: 1989.
- 54.Ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonida o'quvchilar va talabalar bilan yuz bergan baxtsiz hodisalarni tekshirish va hisobga olish tartibi to'g'risida NIZOM. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, -Т.: 2011 y., 3-son, 29-modda.
- 55.Юнусов Б. Руководство по охране труда. Т.2004.
- 56.Yunusov M.Yu., Ikromov E.J. Fuqaro muhofazasi - doimiy zarurat Toshkent, 2002.
- 57.Средства защиты в машиностроении: Расчет и проектирование: Справочник. /Под ред. С.Б. Белова. -М.: Машиностроение, 1989. – 368 с.
- 58.Инженерные решения по охране труда в строительстве. /Под ред. Г.Г. Орлова. -М.: Стройиздат, 1985. – 278 с.
- 59.Лесенко Г.Г. и др. Инженерно-технические средства безопасности труда. 2-е изд. Киев.: Техника, 1986. – 128 с.
- 60.Инженерные решения по охране труда в области строительства и эксплуатации гидромелиоративных систем. /И.Н. Хе и др. ТИИМСХ, Т.: 1988. – 61 с.

### Elektron resurslar.

1. <a href="http://www.bilim.uz">www.bilim.uz</a>	-	OO'MTV sayti
2. <a href="http://www.ziyo.edu.uz">www.ziyo.edu.uz</a>	-	OO'MTV sayti
3. <a href="http://www.ziyo.net.uz">www.ziyo.net.uz</a>	-	OO'MTV sayti
4. <a href="http://www.mintrud.uz">www.mintrud.uz</a>	-	Mehnat va abolini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi sayti.
5. <a href="http://www.minzdrav.uz">www.minzdrav.uz</a>	-	Sog'lioni saqlash vazirligi sayti.
6. <a href="http://www.mchs.gov.uz">www.mchs.gov.uz</a>	-	Favqulodda vaziyatlar vazirligi sayti.
7. <a href="http://www.uznature.uz">www.uznature.uz</a>	-	Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi sayti.
8. <a href="http://www.standart.uz">www.standart.uz</a>	-	Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi sayti.
9. <a href="http://www.sanoatktn.uz">www.sanoatktn.uz</a>	-	Sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (Sanoatkontexnazorat) sayti.
10. LexUz	-	O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchilik bazasi.
11. <a href="http://www.hsea.ru">http://www.hsea.ru</a>	-	Охрана труда. Промышленная и пожарная безопасность. Предупреждение чрезвычайных ситуаций.
12. <a href="http://www.znakcom-plect.ru">http://www.znakcom-plect.ru</a>	-	Охрана труда и техника безопасности.
13. <a href="http://www.ohranatruda.ru">www.ohranatruda.ru</a>	-	Охрана труда, техника безопасности и пожарной безопасности.
16. <a href="http://ipb.mos.ru/ttb">http://ipb.mos.ru/ttb</a>	-	Интернет журнал "Технологии техносферной безопасности"

#### **4. ILOVALAR**

**I-ilova.**

5640100 – «Hayot faoliyati xavfsizligi» bakalavriyat ta’lim yo’nalishi bo'yicha bitiruv malakaviy ishi uchun taklif etiladigan mavzular (ishlab chiqarishda faoliyat xavfsizligini ta'minlash masala va muammolariga bag'ishlangan)

1. Yopiq zovur qurilishida xavfsizlikni ta'minlash tadbirlarini ishlab chiqish.
2. Irrigatsiya tizimlarida mehnat sharoitini yaxshilash chora tadbirlarini ishlab chiqish.
3. Irrigatsiya tizimlarida hayot faoliyati xavfsizligi masalalari va tadbirlari.
4. Ish o'rinnlardagi havoning tarkibidagi zararli moddalar miqdorini o'rganish va ularga qarshi chora-tadbirlar ishlab chiqish.
5. Ishlab chiqarish binolarida mikroiklim sharoitlarini o'rganish va ularni yaxshilash chora-tadbirlarini ishlab chiqish.
6. Meliorativ mashinalar kabinasida mehnat sharoitini o'rganish va uni yaxshilash tadbirlarini ishlab chiqish.
7. Meliorativ mashinalarni ishlashda mehnat sharoiti tahlili va xavfsizlikni yuksaltirish tadbirlarini ishlab chiqish.
8. Meliorativ mashinalarni ta'mirlash ustaxonasida elektr xavfsizligini oshirishga oid texnik tadbirlarni ishlab chiqish.
9. Meliorativ mashinalarni ta'mirlashda mehnat sharoitining tahlili va uni yaxshilash bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqish.
10. Meliorativ-qurilish maydonchalarida mehnat sharoitini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish.
11. MTP (mashina traktor parklari) ustaxonasida mehnat sharoiti tahlili va ularni yaxshilash tadbirlarini ishlab chiqish.
12. Nasos stansiyasida mehnat sharoitini o'rganish va uni yaxshilash tadbirlarini ishlab chiqish.
13. Neft maxsulotlari omborida yong'in xavfsizligini oshirishga oid texnik tadbirlar ishlab chiqish (xo'jalik misolida)
14. Ob'yektda ishlab chiqarish sanitariyasi holatini o'rganish va uni yaxshilash tadbirlarini ishlab chiqish.
15. Ob'yektda yong'in xavfsizligi holatini o'rganish va uni yaxshilash tadbirlarini ishlab chiqish.
16. Ob'yektda mehnat sharoitini o'rganish, jarohatlanish tahlili va uning bashorati.
17. Ob'yektda mehnat muhofazasini tashkil qilish (OAJ "Agregat zavodi" misolida).
18. Payvandchilik sexida ish sharoitlarini tahlil qilish va xavfsizlik darajasini oshirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish.

19. Suv va qishloq xo'jaligi korxonalarida baxtsiz hodisalarini o'rganish va ularni kamaytirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.
20. Suv va qishloq xo'jaligi mashinalaridan foydalanishda baxtsiz hodisalar tahlili va ularning oldini olish tadbirlarini ishlab chiqish.
21. Suv xo'jaligi ob'yeqtolarini qurishda xavfli va zararli omillarni o'rganish va ularga qarshi tadbirlar ishlab chiqish.
22. Suv xo'jaligi ob'ekutlarini (GTllar, magistral kanallar va boshqa) ta'mirlashda xavfsizlikni ta'minlash tadbirlarini ishlab chiqish.
23. Suv iste'molchilari uyushmasida xavfsizlikni ta'minlash tadbirlarini ishlab chiqish.
24. Suv iste'molchilari uyushmasi ob'yeqtlarida mehnat sharoiti va uni yaxshilash tadbirlarini ishlab chiqish.
25. Ta'mirlash korxonalari sex va xonalari uchun havo almashtirish tizimini hisoblash va loyihalash.
26. Ta'mirlash korxonalari sex va xonalardagi havo almashtirish tizimlari ishini o'rganish va uni yaxshilash tadbirlarini ishlab chiqish.
27. Ta'mirlash korxonalarida zararli va xavfli omillarni o'rganish va ularga qarshi tadbirlar ishlab chiqish.
28. Ta'mirlash korxonalarida havo almashtirish va tozalash uskunalarini ishlatalishda xavfsizlik tadbirlarni yaxshilash.
29. Ta'mirlash korxonalarining dvigatellarni sinash sexida zararli omillarni o'rganish va ularga qarshi chora-tadbirlar yaratish.
30. Ta'mirlash korxonalarining yig'ish sexida yoritish tizimlarini o'rganish va uni yaxshilash tadbirlarini ishlab chiqish.
31. Tuman mashina traktor parklaridagi mehnat sharoitini tahlili va uni yaxshilash tadbirlarini ishlab chiqish.
32. O'zbekiston Respublikasi viloyatlarida ishlab chiqarish jarohatlanishlarni o'rganish va ularni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish.
33. Havo siqish kompressorlarini ishlatalishda mehnat xavfsizligini yaxshilash tadbirlarini ishlab chiqish.
34. Korxona sex va bo'limlarda shovqin darajasini tadqiq qilish va uni kamaytirish tadbirlarini ishlab chiqish.
35. Korxona sex va bo'limlarda titrash darajasini tadqiq qilish va uni kamaytirish tadbirlarini ishlab chiqish.
36. Suv nasoslarini montaj va demontaj qilishda mehnat sharoitining tahlili va xavfsizlik tadbirlarini ishlab chiqish.
37. Buldozer, skreyper, greyder va boshqa qurilish va meliorativ mashinalarida ish sharoitlari tahlili va xavfsizlikni ta'minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

## 2- ilova.

5640100 – «Hayot faoliyat xavfsizligi» bakalavriyat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bitiruv malakaviy ishi uchun taklif etiladigan mavzular (favqulodda vaziyatlarning oldini olish va favqulodda vaziyatlarda xavfsizlikni ta‘minlash masala va muammolariga bag‘ishlangan)

1. Zilzila va uning ob‘yektlarga ta’sirini kamaytirish tadbirlarini ishlab chiqish.
2. Qishloq va suv xo‘jaligi ob‘yektlarida favqulodda vaziyatlar xavfini kamaytirish tadbirlari.
3. Qurilish maydonida favqulodda vaziyatlar xavfini kamaytirish tadbirlarini ishlab chiqish.
4. Nasos stansiyalarining favqulodda vaziyatlarda barqarorligini ta‘minlash tadbirlarini ishlab chiqish.
5. Neft mahsulotlarini saqlash ob‘yektlarida texnogen favqulodda vaziyat yuz berishining oldini olish chora-tadbirlari.
6. Ob‘yektda radiatsion holatni baholash va radiatsiya ta’sirini kamaytirish tadbirlarini ishlab chiqish.
7. Ob‘yektlarda texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlarning oldini olish va xavfsizlik chora-tadbirlari.
8. Suv xo‘jaligi ob‘yektlarida Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlikni ta‘minlash.
9. Suv xo‘jaligi ob‘yektlarida tabiiy tusdagi favqulodda vaziyatlarni oldini olish tadbirlarini ishlab chiqish.
10. Suv xo‘jaligi ob‘yektlarida favqulodda vaziyatlarda fuqaro himoyasini tashkil etish.
11. Suv xo‘jaligi ekspluatatsiya tashkilotlarida (SFU) texnogen xarakterli favqulodda vaziyatlarning holatini baholash va xavfsizligini ta‘minlash.
12. Tabiiy tusdagi (suv toshqini) favqulodda vaziyat sodir bo‘lganda avariya-qutqaruv ishlarini tashkil etish.
13. Tabiiy tusdagi favqulodda vaziyatlarda qishloq va suv xo‘jaligi ob‘yektlarida muhofaza tadbirlari (korxona misolida).
14. Tabiiy tusdagi favqulodda vaziyatlarda ob‘yektlardagi avariya - qutqaruv ishlarini tashkil qilish.
15. Texnogen tusdagi favqulodda vaziyatda ob‘yekt holatini baholash va xavfsizligini ta‘minlash.
16. Texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlarda ob‘yektlarda zararlanish o‘choqlarini aniqlash va himoya chora – tadbirlari (korxona misolida).
17. Texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlarda suv xo‘jaligi ob‘yektda barqarorlikni ta‘minlash tadbirlarni ishlab chiqish (korxona misolida).
18. Texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olish tadbirlarini ishlab chiqish.
19. Favqulodda vaziyat oqibatlarini bartaraf etishni tashkil qilish.
20. Favkulodda vaziyatda qishloq va suv xo‘jaligi ob‘yektlarida barqarorlikni ta‘minlash tadbirlari.
21. Favqulodda vaziyatlarda ob‘yektda evakuatsiyani o‘tkazishni tashkil qilish.

22. Favqulodda vaziyatlarda ob'yektlarda AQI (avariya qutqaruv ishlari)ni tashkil qilish va o'tqazish.
23. Favqulodda vaziyatlarda ob'yektlarda fuqaro muhofazasi xizmatini tashkil qilish (korxona misolida).
24. Favqulodda vaziyatlarda ob'yektning kimyoviy holatlarni o'rganish va baholash.(korxona misolida).
25. Favqulodda vaziyatlarda ob'yektning radiatsion holatini baholash.
26. Favqulodda vaziyatlarda fuqaro himoyasini tashkil qilish tadbirlar.

3-ilova

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI  
VAZIRLIGI

TOSHKENT IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA INSTITUTI

"Suv xo'jaligini  
avtomatlashtirish va  
mexanizatsiyalash"  
fakulteti

"Hayot - faoliyat xavfsizligi"  
kafedrasi

Himoyaga ruxsat etilsin  
HFX kafedrasi mudiri

F.I.SH

20

y.

Bakalavr darajasini olish uchun

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Mavzu: -----  
-----  
-----

Bajaruvchi:

\_\_\_ bosqich \_\_\_ guruh  
talabasi ----- FIO -----

Bitiruv malakaviy  
ishi rahbari:

----- FIO -----

Toshkent — 20 y.

4-ilova

**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA INSTITUTI**

“TASDIQLAYMAN”

kafedra mudiri \_\_\_\_\_  
“ ” 20 y.

**Bitiruv malakaviy ishi uchun topshiriq**

Talabaning familiyasi, ismi sharifi \_\_\_\_\_

Bitiruv malakaviy ishining mavzusi \_\_\_\_\_

Institutning “ ” 20 y. № sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan. Bitiruv malakaviy ishini topshirish muddati:

“ ” 20 y.  
Bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun dastlabki ma'lumotlar

Hal etilishi lozim bo'lgan savollar \_\_\_\_\_

Ishning grafik qismi chizmalarining mazmuni \_\_\_\_\_

Bitiruv malakaviy ishining bo'limlari bo'yicha maslahatchilar:

Bo'lim nomi	Maslahatchi F.I.Sh	Imzo, sana topshiriq berdi	Imzo, sana qabul qildi
_____	_____	_____	_____
_____	_____	_____	_____

Topshiriq berilgan sana: “ ” 20 y.

Rahbar \_\_\_\_\_ Talaba \_\_\_\_\_  
(imzo) (topshiriq oldim, imzo)

## TAQVIMIY REJA

T.r.	Bitiruv malakaviy ishining qismlari	Bajarilish muddati	Izoh
1			
2			
3			
4			
5			
6			
7			
8			
9			
10			
11			
12			
13			
14			
15			
16			
17			
18			
19			
20			
21			
22			
23			
24			
25			
26			
27			
28			
29			
30			
31			
32			
33			
34			
35			
36			
37			
38			
39			
40			
41			
42			
43			
44			
45			
46			
47			
48			
49			
50			
51			
52			
53			
54			
55			
56			
57			
58			
59			
60			
61			
62			
63			
64			
65			
66			
67			
68			
69			
70			
71			
72			
73			
74			
75			
76			
77			
78			
79			
80			
81			
82			
83			
84			
85			
86			
87			
88			
89			
90			
91			
92			
93			
94			
95			
96			
97			
98			
99			
100			

**Talaba** \_\_\_\_\_

**Rahbar** \_\_\_\_\_

## Mundarija

	Kirish.....	3
1	Bitiruv malakaviy ishini bajarishga umumiy ko'rsatmalar.....	4
1.1.	Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari.....	4
1.2.	Bitiruv malakaviy ishining mavzusi.....	4
1.3.	Bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbarlik qilish.....	5
1.4.	Bitiruv malakaviy ishini bajarishga qo'yiladigan umumiy talablar.....	5
1.5.	Bitiruv malakaviy ishini himoya qilish.....	7
2.	Bitiruv malakaviy ishi tarkibi va mazmuni.....	8
2.1.	Ishlab chiqarishda faoliyat xavfsizligini ta'minlash masala va muammolariga bag'ishlangan BMI hisob-tushuntirish yozuvining asosiy qismi tarkibi .....	9
2.2.	Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va favqulodda vaziyatlarda xavfsizlikni ta'minlash masalalariga bag'ishlangan BMI hisob-tushuntirish yozuvining asosiy qismi tarkibi .....	9
2.3.	BMI chizma qismida bajariladigan grafik-chizma materiallarining taxminiy mavzulari .....	10
2.4.	BMI asosiy qismini bajarish uchun ob'yeqtidan (korxonadan) olinishi, to'planishi va tahlil qilinishi kerak bo'lgan ma'lumotlar va materiallar ro'yxati .....	11
3	BMI ni bajarishda qo'llaniladigan adabiyotlar va elektron resurslar.....	13
4	Ilovalar .....	17

**IBRAGIMOV ERKIN ISMAILOVICH  
GAZINAZAROVA SIDDQAH**

**5640100 - "HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI"  
TA'LIM YO'NALISHI TALABALARI UCHUN  
BITIRUV MALAKAVIY ISHINI  
BAJARISH BO'YICHA**

**(METODIK KO'RSATMA)**

MUHARRIR:

M. MUSTAFAYEVA

MUSAHHIH:

D. ALMATOVA

---

Bosishga ruxsat etildi: 11.07.2012 y. Qog'oz o'lchami 60x84 1/16.  
Hajmi 1,6 bosma taboq. 15 nusxa. Buyurtma № 234  
TIMI bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent -100000 Qori-Niyoziy ko'chasi 39 uy.

## БАҒДАДЫН 12 МАЕДИ САЕНИСІЗДЕРДІК

1.1.	Бағыт мәдәниятінің тарихы және мәдениеттік мұнайсыздықтың маңызы	1
1.2.	Бағыт мәдәниятінің тарихы және мәдениеттік мұнайсыздықтың маңызы	2
1.3.	Бағыт мәдәниятінің тарихы және мәдениеттік мұнайсыздықтың маңызы	3
1.4.	Бағыт мәдәниятінің тарихы және мәдениеттік мұнайсыздықтың маңызы	4
1.5.	Бағыт мәдәниятінің тарихы және мәдениеттік мұнайсыздықтың маңызы	5
1.6.	Бағыт мәдәниятінің тарихы және мәдениеттік мұнайсыздықтың маңызы	6
1.7.	Бағыт мәдәниятінің тарихы және мәдениеттік мұнайсыздықтың маңызы	7
1.8.	Бағыт мәдәниятінің тарихы және мәдениеттік мұнайсыздықтың маңызы	8
1.9.	Бағыт мәдәниятінің тарихы және мәдениеттік мұнайсыздықтың маңызы	9
1.10.	Бағыт мәдәниятінің тарихы және мәдениеттік мұнайсыздықтың маңызы	10
1.11.	Бағыт мәдениятінің тарихы және мәдениеттік мұнайсыздықтың маңызы	11
1.12.	Бағыт мәдениятінің тарихы және мәдениеттік мұнайсыздықтың маңызы	12
1.13.	Бағыт мәдениятінің тарихы және мәдениеттік мұнайсыздықтың маңызы	13
1.14.	Бағыт мәдениятінің тарихы және мәдениеттік мұнайсыздықтың маңызы	14

АГЕНТАЛСЫМ

МЕДИА

ДАРЫНДА

МЕДИА

Бағыт мәдениятінің тарихы және мәдениеттік мұнайсыздықтың маңызы  
Мемлекеттік мәдениеттік мұнайсыздықтың маңызы  
ТММ-пәннелердегі мәдениеттік мұнайсыздықтың маңызы  
Ертесінен барынан Газ-Медиа жөндеуде